

| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№4/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 370 sahifa,
15-aprel, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

# MUNDARIJA

XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta'rif ........ 12
Achilov Muzaffar Norquliyevich

"4K" modeliga asoslangan ta'limda interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish usullari ........ 15
Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi

Oliy ta'lim muassasalari kafedrasi faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik risklarni boshqarish mexanizmi ........ 18
Djalalov Baxromjan Begmurzayevich

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik aspektlari ........ 24
Djumayeva Dildora Isroilovna

Urma zarbli cholg'ular turlari va ularda ijro etish usullari ........ 27
Egamkulov Oybek Altmishevich

Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli ........ 31
Ergasheva Guzal Maxkambayevna

Bo'lg'usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi ........ 34
Ermatova Gulnoz Pirimovna

Boshlang'ich ta'lim tarbiya fanida o'yin texnologilardan foydalanish metodikasi ........ 37
Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining yo'nalishlari va usullari ... 41
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna

Kurash sport turiga qiziquvchi ayollarning motivatsiya va o'z-o'zini anglash darajasi ........ 44
Mamaraimova Ra'no Usmanovna

The Teaching of Oral Production in the FFL Classroom: Linguistic and Psychological Difficulties ........ 48
Narzulloyeva Dilfuza Bahriddin qizi

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish ........ 54
Nurmatova Iroda Toxtasinovna

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning o'rni ........ 56
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna

Globallashuv jarayonida o'quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini shakllantirish ........ 59
Siddikov Baxtiyor Saidkulovich

4-sinf o'quvchilariga maqollar ma'nosini tushuntirish usullari ........ 63
Suvonova Shohida Murodullo qizi

Kasbiy rivojlanish soatlarining pedagogik va psixologik asoslari ........ 69
Temirova Rushana Ravshan qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni shakllantirish mazmuni ........ 73
Teshabayeva Zamira Sobirovna, Abdulatipova Mehribon Qahramon qizi

Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari ........ 76
Usmonova Zulfiya Ilxomovna

Bo'lajak o'qituvchilarda konfliktologik kompetentlikning shaxs sifatlariga aloqadorligi ........ 79
Muxammadiyeva Xadicha Karomatovna

Русская документальная проза как отражение прошлого и настоящего общества ........ 82
Дустова Ирода Шукрулло кизи

Размышления о возникновении человеческих эмоций ........ 86
Умарова Навбахор Шокировна, Зарипова Нигинабону Фахритдиновна

Проблемы регулирования терминов в языкознании ........ 89
Курбанова Гузаль Абдурахимовна

Педагогические основы формирования интереса дошкольников к изучению иностранного языка в игровой среде....93
Курбанова Назира Низомиддиновна

Mexanika fanining rivojlanish tarixi....97
Esanov Nuriddin Qurbonovich

Эффективность использования личностно-ориентированной технологии обучения в учебном процессе....100
Намозова Манзура Муродовна

Oʻspirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari....104
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich

Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi....109
Radjabova Gulnoza Bahromovna

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda taʼlim jarayonini tashkil etish usullari....113
Saffarova Mohidil Axmadovna

Adabiy til va shevalar oʻrtasidagi leksik tafovutlar: kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlari....116
Qurbonova Asal Oʻtkirovna

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini CALP yondashuvi asosida oʻqish savodxonligini oshirish....119
Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi

Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda boʻlajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi....121
Artikova Nodira Shavkat qizi

Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlarini shakllanishining tarixiy-ijtimoiy omillari....125
Berdaliyeva S. D.

Boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy madaniyatini shakklantirish prinsiplari....128
Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna

Boshlangʻich sinflarga matematika oʻqitish jarayonida koʻrgazmali qurollardan foydalanib dars samaradorligini oshirish....132
Mardonov Eshim Muratovich, Xushvaqtov Ali Ashurovich, Narzullayeva Muxlisa Rustam qizi

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini takomillashtirish....135
Misirova Nodira Tovbayevna, Ergasheva Madina Qahramon qizi

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida 6-7-yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini tashkil etish....139
Ortiqova Gulhayo Erkinboy qizi

-ayotgan boʻlsa shaklining lisoniy xususiyati va uning oʻzgarishi....142
Safarov Firuz Sulaymonovich

Sharq mutafakkirlarining pedagogik taʼlimotlari va qarashlarida tarbiyaning maʼnaviy, axloqiy negizlari....145
Xalilov Farhod Furqat oʻgʻli, Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi

Anvar Obidjon ijodining tadrijiy takomiliga doir mulohazalar....148
Mamatalimov Zafar Mamaraimovich

Patologik fiziologiya fanini oʻqitishda it texnologiyalarining oʻrni....152
Abdirashidova Gulnoza Ablakulovna, Mavlyanova Umida Nematovna, Sobirova Raʼno Tulqin qizi

Boʻlajak oʻqituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda motivatsion yondashuvning oʻziga xos jihatlari....156
Abdumanopov Muhammadsodiq Muhammadyusuf oʻgʻli

The Role of Mass Media as a Tool in Teaching English Vocabulary to Young Learners....159
Dadaxonova Dilnavoz Zafarjon kizi

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari taʼlim va tarbiya jarayonlarida bolalarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish....164
Dilorom Xomidova

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi....169
Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi

Oʻzbek yosh oilalarida nikohning dastlabki yillarida oilaviy nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....173
Hakimova Nargiza Djavlievna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Tarbiyalanuvchilarni nutq madaniyatiga o'rgatishda tarbiyachi nutqi va unga qo'yiladigan talablar ..... 176
Kazieva Turg'unoy Tursunboevna, Abdullayeva Kamola Erkin qizi

Ikki tilli o'quv lug'atlari tuzishning lingvodidaktik asoslari (ingliz va o'zbek tillari negizida yaratilgan ikki tilli lug'atlar misolida) ..... 179
Oqboyeva Zulfiya Bobonazarovna

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi ..... 183
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Bo'ronova Nigora Umar qizi

Modern Opportunities for the Integration of Technologies Into the Media and their Role in Improving the Efficiency of the Media ..... 187
Salim Doniyorov

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi darslarida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ..... 192
Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich

Теории и модели выбора брачного партнера ..... 197
Абдумуталова Мадина Абдумалик кизи

Maktabgacha ta'lim muassalarida autsorsingdan foydalanish masalalari ..... 203
Kasimova Gulyar Axmatovna

Arxitektura fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 209
Astanov Tolib Muxtarovich

Talabalarda tadqiqotchilik qobilyatlari ..... 212
Saidakbarova Nigora

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ..... 216
Tuxliyev Muslim Sherzod o'g'li

Искусственный интеллект в смешанном обучении ..... 220
Хикматов Нодир Назимджанович

The Literary Translation in English and its Linguistic Issues ..... 224
Ravshanova Ziyoda Qahramon qizi, Egamberdiyev Javlonbek Saynabi o'g'li

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim darajasini oshirishda ilg'or xalqaro pedagogik tajribalarni integratsiyalash: zamonaviy yondashuvlar, metodologiyalar va samaradorlik tahlili ..... 229
G'afurov Mirzo Ulug'bek Majidovich

Leksikologiya va uning nazariy asoslari ..... 232
G'anibayeva Bayyan Sharipbay qizi

Olimpiya ta'limini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish ..... 236
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich

Turizmda ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shartlari ..... 239
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna

Autizmning kelib chiqish sabablari va Rett sindromi ..... 243
Xakimova Zulhumor Xakimovna

Talabalarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning dolzarb masalalari ..... 246
Xaitov Abdukosim Abdulakim o'g'li

Tibbiy ta'lim talabalarini ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlashda tabaqalashtirilgan jismoniy ta'lim texnologiyasi va shart-sharoitlari ..... 250
Arabboyev Hurshid

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ..... 255
Eshonqulova Kamola Ibrohimovna

Virusli infeksiyalar zamonaviy diagnostikasi va davolash usullarining biologik asoslari ..... 259
Kaxorova Karomatxon Sovronbayevna

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tafakkuri, mantiqiy fikrlarini rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning ahamiyati ..... 262
Mutalova Dilnoza Abdurashidovna

Buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalash ........ 265
Nishonova Shohista Boymatovna

Pedagogik jamoani rivojlantirish va motivatsiyalashning zamonaviy strategiyalari ........ 268
Pardayeva Yulduz Muradullayevna

15-16 yoshli voleybolchi qizlarning jismoniy rivojlanishining yoshga bog'liq xususiyatlari ........ 272
Po'latova Shahnoza Ikrom qizi

Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ........ 276
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich

Ingliz tili darslarida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quvchilarning til ko'nikmalariga ta'siri ........ 279
Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi

Abu Ali ibn Sinoning matematika fanida qoldirgan merosi ........ 283
Toshboyeva Nargiza Yo'ldashevna, Tursunova Nigora Ulug'bek qizi

Aksiologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ........ 286
Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li

Научные основы формирования навыков сотрудничества у детей дошкольного возраста посредством квест-игр ........ 290
Джамилова Наргиза Нуритдиновна, Мухаммадиева Фарангиз

Теоретические основы формирования международной компетенции обучающихся ........ 294
Миркомилова Шахзода Асрор кизи

Boshlang'ich sinflar matematika darslarida kombinatorikaga oid masalalar ........ 300
Roziqova Farizoda Ruyiddin qizi, Berdiyev Bahodir Ravshanovich

pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari ........ 305
Eshbekova Dilnoza Ibraimovna

Murakkab sintaktik qurilmalar va ularning matndagi paradigmatik o'rni ........ 308
Turdiyeva Nilufar Anvarovna

Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ........ 311
Panjiyeva Shahlo Zulfixor qizi

Kichik maktab yoshidagi zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik nutqining xususiyatlari ........ 314
Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan talabalar mustaqil o'rganish jarayoni ........ 320
Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich

A System of Exercises Aimed at Developing Linguocognitive Competence in Future Psychologists ........ 324
Allamuratov Gafur Ashurovich

Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda jismoniy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari – natijalar misolida ........ 327
Asqarov Ahliddin Alisher o'g'li

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning monologik nutqini o'rganishning ilmiy asoslari ........ 332
Egamberdiyeva Shahnoza Akbar qizi

Tog'ay Murod asarlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlar talqini ........ 335
G'aybullayev Boburmirzo

Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bolalar bilan korreksion ish tamoyillari ........ 338
Ikramova Dilafruz Furqat qizi

Rahbarlik personaliga kadrlar tayyorlab berishning psixologik omillari ........ 341
Karimjanova Yoqutxon Urinbaevna

Integration of Modern Technologies in Teaching English ........ 344
Dautova Makhbuba Normamatovna

Effective Teaching Methods for Enhancing Topic Vocabulary Acquisition in School Learners ........ 347
Absamadova Munira Isroilovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tafakkuri, mantiqiy fikrlarini rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning ahamiyati ........ 352
Mutalova Dilnoza Abdurashidovna

Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarini o'qitishda ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari ........ 355
Xolmonov Mansur Narzulloyevich

Imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirishning kognitiv xususiyatlari ........ 358
Xushvaqtov Umar Norqobilovich

Perefrazalarni o'rganish jarayonidagi ilmiy yondashuvlar va ularning xususiyatlari ........ 363
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Интеграция русского языка в экономическое образование: значение и перспективы ........ 366
Адилова Солия Адиловна, Нуридинов Бехруз Акбар угли

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# PEREFRAZALARNI O'RGANISH JARAYONIDAGI ILMIY YONDASHUVLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI



Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

**Annotatsiya:** Maqolada perifrazaning tilshunoslikdagi o'rni va uning rivojlanish tarixi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqolada, avvalo, perifrazaning ta'rifi hamda uning lug'aviy, grammatik va uslubiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Muallif fikriga ko'ra, perifrazalar boy ma'nosi va o'ziga xos uslubi bilan adabiy tilning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, maqolada perifrazaning o'rganilishi jarayonida yuzaga kelgan ilmiy qarashlar va metodologik o'zgarishlar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, ifoda-tasvir vositalari, ko'chimlar, troplar, perifraza, perifraz, parafraza, tasviriy ifoda, perifrazalarning metonimiya va metafora bilan munosabati, perifrazaning grammatik xususiyatlari, perifrazaning uslubiy xususiyatlari.

**Abstract:** The article provides detailed information about the role of periphrasis in linguistics and the history of its development. Initially, it explores the definition of periphrasis, as well as its lexical, grammatical, and stylistic features. According to the author, periphrasis has had a significant impact on the development of literary language due to its rich meaning and unique style. The article also highlights scientific views and methodological changes that emerged during the study of periphrasis.

**Key words:** direct and figurative meaning of the word, means of expression, metaphors, tropes, periphrasis, paraphrase, figurative expression, relationship of periphrasis with metonymy and metaphor, grammatical features of periphrasis, stylistic features of periphrasis.

**Аннотация:** В статье представлены подробные сведения о роли перифраза в языкознании и истории его развития. Вначале рассматриваются определение перифраза, а также его лексические, грамматические и стилистические особенности. По мнению автора, перифраз с его богатым смыслом и неповторимым стилем оказал значительное влияние на развитие литературного языка. В статье также освещаются научные взгляды и методические изменения, возникшие в процессе изучения перифраза.

**Ключевые слова:** прямое и переносное значение слова, средства выражения, метафоры, тропы, перифраз, парафраз, образное выражение, связь перифраза с метонимией и метафорой, грамматические особенности перифраза, стилистические особенности перифраза.

## KIRISH

So'z ma'nosining kengayishi va ko'chgan holda qo'llanilishi tilning, ayniqsa, lug'at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biridir. So'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi – lug'at boyligini ko'rsatuvchi, uslub ravonligi va ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

Tasviriy ifoda ko'proq ot va sifat turkumiga mansub. Ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (aql gimnastikasi – matematika, shaxmat) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo'llanilishi (zangori ekran, oynayi jahon – televizor) mumkin [1, 191–192].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Abituriyentlar uchun mo'ljallangan "Zamonaviy ona tili" deb nomlanuvchi mavzulashtirilgan lug'atda "tasviriy ifoda" atamasiga yuqoridagi berilgan ta'rif-u izohlar aynan takrorlanadi [2, 83–84].

Umuman olganda, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda, shu fanlarga doir o'zbek tilida nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida, lug'atlarda perifrazalarga berilgan ta'riflarda aniqlik va bir xillik yetishmaydi. Ularning asosiy qismi ruscha lug'atlar va qo'llanmalardagi fikr-mulohazalarning biroz o'zgartirilgan tarjimasidan boshqa narsa emas.

Bunga ishonch hosil qilish uchun quyida keltirilgan ta'rifu tavsiflarning ayrimlarini oʻzaro qiyoslashning oʻzi kifoya: "Kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini toʻgʻridan-toʻgʻri gapirmasdan, ularni turli xil soʻz yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilishga perifraza deyiladi" [3, 87].

"Narsa va hodisalarning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab koʻrsatuvchi vositalar yordamida bayon qilish perifraza deyiladi" [4, 107].

"Perifraza, perifraz (yun. periphrasis – tasviriy ifoda, kinoya, istiora) – borliqdagi narsa va voqealarning nomini toʻgʻridan-toʻgʻri atamasdan, ularni bilvosita, ya'ni turli xil soʻz va tasviriy iboralar bilan ifodalash, majoziy ifodalardan biri (mas., "sher" oʻrnida "hayvonlar shohi", "paxta" oʻrnida "oq oltin", Alisher Navoiy oʻrnida "oʻzbek adabiy tilining asoschisi" iboralarining qoʻllanilishi). Perifrazada tasvirlanayotgan tushunchaning ayni matn va vaziyat uchun eng muhim sifati, belgisi, xususiyati birinchi oʻringa qoʻyiladi. Perifrazaning asosiy vazifasi – matnning ifodaviyligi, bayonning ta'sirchanligini oshirishdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Perifrazalar, asosan, badiiy adabiyot tilida, publitsistik va ogʻzaki nutqda uchraydi, ilmiy nutqda esa tasviriylikdan xoli boʻladi va termin sifatida qoʻllanadi. Funksional jihatdan perifrazaning ikki turi farqlanadi: hamma tomonidan qabul qilingan, hamma tushunadigan perifrazalar (frazeologizmlar, hikmatli iboralar) va vaziyatga bogʻliq boʻlgan, mazmuni va ma'nosi muayyan matndagina aloqador boʻlgan individual perifrazalar (bularning ba'zilari izchil qoʻllanish natijasida birinchi turdagi perifrazalar qatoriga oʻtadi). Shu bilan birga, badiiy, obrazli perifrazalar (oq oltin – paxta, zangori olov – gaz, poʻlat qush – samolyot kabi) va mantiqiy perifrazalar (masalan, evfemizmlar, tabular) oʻzaro farqlanadi. Aksariyat perifrazalar otli birikmalar boʻlib, metafora, metonimiya, sinekdoxa singari koʻchimlar asosida yuzaga keladi [5, 43–44].

"Perifraz – majozlarning bir turi boʻlib, nutqning ifodaviyligini oshirish maqsadida predmet, odam, voqea-hodisalar nomini ularning ma'nosini, xususiyatlarini ifodalovchi boshqa soʻz iboralari bilan almashtirish usuli. Masalan, "burgut" soʻzi oʻrniga – "qushlar podshosi", "Oʻzbekiston" soʻzi oʻrniga – "oq oltin koni", "paxtakor" soʻzi oʻrniga – "oltin qoʻllar" soʻzlarining qoʻllanishi perifrazalardir" [6, 160; 229].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Rus poeziyasida qoʻllangan ot perifrazalarning ilmiy tahlili bilan maxsus shugʻullangan L.N. Sinelnikova talqiniga koʻra, "perifraza – ilmiy, emotsional-ekspressiv birlikdir. U badiiy nutqda, ayniqsa poeziyada, minimal leksik vosita bilan maksimal ta'sirchanlikni qoʻlga kiritish imkonini beradi" [7, 8].

A. Kvyatkovskiy perifrazalarni "kengaytirilgan, yopiq metonimiyalar" deb nomlagan edi [8, 209].

X. R. Kurbatov esa perifrazalarda ham metaforaga, ham metonimiyaga yaqin holatlar mavjudligini ta'kidlab, tabularning evfemizmlar bilan almashtirish hodisasini ham perifrazalarning bir koʻrinishi deb hisoblagan edi [9, 93]. Mazkur tilshunos olim Sh. Balli esa bu hodisani "fikrning keng shaklda takrorlanishi odatdagi terminologiyada perifraza deyiladi" [10, 126], – deb ta'riflaydi.

I. V. Arnold ham perifrazani predmet, voqea-hodisaning nomini uning biror xarakterli xususiyatini ta'kidlab koʻrsatishga xizmat qiluvchi tasviriy oborot bilan almashtirish san'atiga asoslangan trop (koʻchim), deb hisoblaydi [11, 88].

F. Salayev, G. Qurboniyozov tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli soʻzligi"da bu tasviriy vosita uchun "perifraz" atamasi qoʻllanib, quyidagicha izohlangan: "Perifraz – (yunoncha periphrasis – yaqin gapiraman) tasvirlanayotgan narsa, tushuncha yoki insonni oʻz nomi bilan emas, unga xos belgi, xususiyat nomi bilan atashga asoslangan koʻchim turi. Masalan: Ohang varaqlaydi dunyoni, // Dunyo – oʻqilmagan bir kitob (R. Parfi).

Perifraza she'riy nutqqa tasviriylik va ta'sirchanlik bagʻishlaydi, she'rxonning badiiy didini oʻstiradi, tevarakdagi narsa va hodisalar mohiyatiga qiziqishni oshiradi" [12, 182–183].

Shoir Uygʻunning urush davrida yaratilgan "Qargʻish" she'rida vatandoshlarning bosqinchilarga boʻlgan nafrati ushbu tasviriy vosita orqali yanada qabariq va ta'sirchan ifodasini topgan:

Ket! Yoʻqol, Gulshanni ezma! // Toptama bogʻimni mol. // Bulgʻama, hayvon, kasofat, // Lolazorimdan yoʻqol!

M. Yoʻldoshevning ta'kidlashicha, "parafraza (ayrim adabiyotlarda perifraz, parifraza) deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Parafraza deb narsa, hodisani oʻz nomi bilan emas, ularni xarakterlovchi belgi-xususiyatlari asosida tasviriy yoʻl bilan ifodalashga aytiladi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday narsa-hodisa nomini boshqa ibora bilan aytaverish kutilgan effektni bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom-ibora oʻrtasida muayyan mazmuniy aniqlik boʻlishi lozim. Masalan: uchuvchilar – samo lochinlari, akula – suv osti hukmdori, she'r – hayvonlar sultoni, Samarqand – Sharq darvozasi, teatr – ma'naviyat oʻchogʻi, yoshlik – sevgi fasli kabi" [13, 82].

S. Sultonsaidova va O‘. Sharipovaning “O‘zbek tili stilistikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida bu trop turi “perifraz” deb nomlanib, quyidagicha izohlangan: “Perifraz – bu grekcha so‘z bo‘lib, atrof, boshqacha gapiraman degan ma’nolarni bildiradi. Narsa va hodisalarning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab ko‘rsatuvchi vosita yordamida bayon qilish – perifraz deyiladi. Masalan: Sohibqiron bobokalonimiz – deganda ko‘z oldimizga Amir Temur keladi. Yoki yana bir misol: tibbiyot olamining asoschisi – Ibn Sino” [14, 72–73]. Bu misollarda Sohibqiron bobokalonimiz, tibbiyot olamining asoschisi perifrazlardir. Bunday perifrazlar nutqda ko‘plab ishlatiladi: g‘azal mulkining sultoni – Alisher Navoiy, shodlik va baxt kuychisi – Hamid Olimjon, yor va diyor kuychisi – Zahiriddin Muhammad Bobur, Qadimgi So‘g‘diyonaning markazi – Samarqand kabilar.

## XULOSA

Ko‘rinadiki, misollardagi nomlarni izohlovchi jumlalar bilan nomlar o‘rtasida mazmuniy jihatdan qandaydir yaqinlik va bog‘liqlik sezilib turibdi. Shundan kelib chiqqan holda, biror nomni har qanday so‘z yoki birikma bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lavermaydi, deb aytish kerak.

Bunday ta’rif-u tavsiflarni yana keltirish mumkin. Ularning barchasi bilan tanishuv predmet, hodisa yoki insonni perifraza yoki perifraz bilan nomlash faqat ot so‘z turkumiga xos ekan degan fikrga olib keladi. Lekin inson juda qadimdan predmetning belgisi, holati va harakatini boshqacha nomlab, frazemalar bilan ham ifodalab kelgan. Masalan, “sezgir” so‘zi ma’no jihatdan “yer tagida ilon qimirlasa, biladigan” frazemasiga, “zabardast”, “pahlavon” so‘zlari esa “tog‘ni ursa, talqon qiladigan” frazemasiga mos keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Ona tili (maktab o‘quvchilari uchun). Qomus – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010.
2. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirov X. Zamonaviy ona tili (mavzulashtirilgan lug‘at). – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.
3. Qo‘ng‘irov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: “Fan”, 1977.
4. Qo‘ng‘irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 7-tom.
6. Boboyev T. “Adabiyotshunoslikka kirish” kursi bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent, 1979. – B. 160; Boboyev T. She’r ilmi ta’limi (o‘zbek she’riyati poetikasidan saboqlar). – Toshkent, 1996.
7. Синельникова Л.Н. Именная перифраза в языке современной поэзии. Автореф. дисс… канд. филол. наук. – М., 1975.
8. Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: “Наука”, 1966. – С. 209.
9. Курбатов Х.Р. Татарская лингвистическая стилистика и поэтика. – М.: “Наука”, 1978.
10. Балли Ш. Французская статистика. – М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1960.
11. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – М.: “Просвещение”, 1990.
12. Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010.
13. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2007.
14. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Yurist-media markazi” nashriyoti, 2009.
15. Yuldasheva D.B. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasida qush nomlari uslubiy vosita sifatida // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2024-yil, noyabr, № 07-son, 92–95-betlar.
16. Yuldasheva D.B. O‘zbek adabiyotida modernizm va postmodernizm unsurlari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2025-yil, noyabr, № 1-son, 179–181-betlar.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №4**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.